# UBAYDIY G‘AZALLARIDA ARABCHA SIFATLARNING QO‘LLANILISHI

**Chimpo‘latova Sevara Alisherovna**
Oriental universiteti “Tillari-1” kafedrasi, O‘qituvchi
E-mail: sevarachimpolatova@gmail.com

Qabul qilindi: 13.01.2026
Ko‘rib chiqildi: 14.02.2026
Tasdiqlandi: 16.02.2026

O‘zbek tili tarixini o‘rganish o‘zining uzoq o‘tmishiga ega bo‘lsa-da, muayyan bir asardagi arabizmlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish muammoligicha qolmoqda. Ayniqsa, Ubaydiyning o‘zlashma so‘zlarga bo‘lgan munosabatini bir asari asosida o‘rganish buyuk adib ijodini yanada chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Ubaydiy asarlari tilning xususiyatlarini to‘liq ochish uchun tadqiqot ishlari olib borish zarur. Zero, bu bebaho merosni zamonamiz ahliga yetkazish xalqimiz ma’naviyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat Ubaydiy ijodini chuqur o‘rganishga, balki XV–XVI asr turkiy adabiy tilining umumiy xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ubaydiy ijodi bo‘yicha adabiyotshunoslikda bir qator tadqiqotlar olib borilgan A.Xolbekov, A.Karimov, M.Jo‘rabekov, H.Yusupov, B.Bobomurodov[1] ular asosan shoirning hayoti, badiiy merosi, davr adabiy muhiti hamda umumiy tahlil qilishga qaratilgan. Arabcha leksika, ayniqsa sifatlarning devonda qo‘llanilish jihatlarining tahlili maxsus tadqiqot mavzusi sifatida yetarlicha yoritilmagan. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari tilida arabcha sifatlarning o‘rni va vazifalari haqida umumiy fikrlar mavjud[2], Ubaydiy g‘azallarida ularning rolini maxsus o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Uning g‘azallarida ilohiy ishq va majoziy ishq mazmundagi g‘azallari aksariyatni tashkil qilsa ham, lekin tabiat manzaralari hamda shoirning o‘z his-tuyg‘ulari ifodasini topgan g‘azallari ham uchraydi. Devonda g‘azallarning soni (310 tadan ziyod)ni tashkil qiladi[3]. Til,

[1] Xolbekov A. *Qul Ubaydiy hayoti va ijodi*. Monografiya. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2005.
Karimov A. *O‘zbek mumtoz adabiyotida axloqiy motivlar*. Samarqand: Zarafshon, 2017.
Jo‘rabekova M. *Qul Ubaydiy satirasi va uning ijtimoiy mazmuni*. Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2018.
Yusupov H. *Qul Ubaydiy g‘azallarining badiiy xususiyatlari*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
Bobomurodov B. *Qul Ubaydiy asarlaridagi ijtimoiy-satirik ruh*. Qarshi: QDPI, 2022.

[3] Абдуллаев М.Ҳ. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти.Дисс. ... Т.: 2000.-Б.128.

uslub va ifoda soddaligini saqlash uchun xalq og‘zaki she’riyatiga ham e’tibor qaratgan.

Darhaqiqat, Ubaydiy zullisonayn shoir bo‘lgan. U o‘z davrining eng yetuk olimlaridan ta’lim va tarbiya oladi. Arab va fors tillarini qunt bilan o‘qib-o‘zlashtirgan bo‘lib, arab va fors tillaridan foydalanib, asarlarining jozibali, o‘quvchini o‘ziga sehrlay oladigan darajada bo‘lishiga erishgan. Shu bois Ubaydiy asarlari nafaqat badiiy, balki mislsiz ma’naviy, lisoniy boylik hamdir. Chunonchi, shoir asarlaridagi sifatlarning qo‘llanishini o‘rganish, bu shoirning so‘z qo‘llash san’atini teran tadqiq etishning keng imkoniyatlarini ochadi.

Devonda sifat turkumiga mansub arabizmlar ot turkumiga nisbatan kamroq uchraydi. Ma’lumki arab tilida she’rlar bitish an’anasi Movarounnahrda X asrlardayoq keng tarqalgan. Abu Mansur as-Saolibiy o‘zining mashhur “Yatimat-ud-dahr” asarida X va XI asrning birinchi yarimida Xuroson va Movarounnahrda yashab ijod etgan 147 shoir haqida ma’lumotlar berib, ularning she’rlaridan namunalar keltirgan. Shu shoirlardan 47 tasi Buxorada yashab ijod qilgan[4]. Arab tilida ijod qilgan bu shoirlar turli xil mavzularda ijod qilishgan bo‘lib o‘z ijod namunalarida arab tilining takrorlanmas so‘zlaridan foydalanib bir qancha she’r turlariga ham alohida e’tibor berishgan. Ubaydiy ham arabcha so‘zlarni asarlarida mohirona qo‘llaganini uning g‘azalari misollarda kuzatishimiz mumkin. Masalan:

Yo akromu-l-kirom lakal juvdu val a’to,
Laysal karimu mislaka fil juvdi vassaxo

(203a)

Baytdagi “akram” (أكرم) sifati **ك ر م (k–r–m)** ildizidan kelib chiqqan bo‘lib**,** arab tilida أَفْعَلُ vaznida, tarjimada “eng karami keng, oliyhimmat”, “saxovat” ma’nolarini anglatadi. أَكْرَم so‘zi ism tafdil sifatning orttirma darajasi bo‘lgani uchun misrada “eng oliyhimmat” degan ma’noda kelgan[5].

O‘zbek tilida ushbu sifatning muqobil shakllari sifatida “saxiy” va “oliyjanob” so‘zlari ishlatiladi. Bu so‘z baytdagi holatiga ko‘ra, maqtov mazmunini kuchaytirib, yuksak saxiylik va oliyhimmat sifatlarini boshqa barchadan ustun qo‘yadi. Ko‘pincha **madhiya** janrida, podshoh, do‘st yoki yuksak maqom egalarini ulug‘lashda ishlatiladi. She’riyatda *“karim”* so‘zi odatda maqtov va e’tirof etish o‘rinlarida qo‘llanadi. Misrada sifatlanmishning saxiyligi, yuksak axloqi yoki oliyjanobligini tasvirlashda ishlatilgan.

[4] Абу Мансур ас-Саолибий. Йатимат-ад-даҳр фи маҳосин аҳл ал-аср. – Т.; 1976.-Б.43.

[5] Иброҳимов Н. Орипов А. Икромжонов А. Зайриев А. Ал-Қомус. Ж. IV. - Тошкент: Ғофур Ғулом нашриёти. 2022. -Б.39

Devonda sifatlar uchraydigan keyingi misralardan misol keltiramiz

Yo hayyu va fiy havaka ana mittu ahyini,
Fi-l-lutfi val inayati val juvdi val a'to

(204a)

Baytdagi "lutf" (لُطْف) so'zi ل ط ف (l–t–f) ildizidan kelib chiqqan bo'lib, arab tilida ism (masdar) hisoblanadi. فُعْل vaznida kelib, holat va sifat mazmunini bildiruvchi masdar hisoblanadi. U fe'l shaklida لَطُفَ – يَلْطُفُ tarzida ham qo'llanishi mumkin, bu sifat "muloyim bo'ldi", "nozik va mehribon bo'ldi" ma'nolarini beradi. Ushbu ildiz arab tilida "noziklik", "muloyimlik", "yumshoqlik", "mehribonlik", "yashirin yaxshilik qilish" kabi ma'nolarni anglatib kelgan. Baytda لطف sifati fi-l-lutfi shaklida, ya'ni jar va majrur holatda kelib, Allohning (yoki madh qilinayotgan zotning) bandaga bo'lgan muloyimligi, mehribonligi va nozik inoyatini ta'kidlab kelgan[6].

O'zbek tilida esa لطف so'zining muqobil shakllari sifatida "lutf", "mehribonlik", "muloyimlik", "nozik inoyat", "rahm-shafqat" so'zlari qo'llanadi. Ayniqsa, mumtoz adabiyotda "lutf" so'zi ko'pincha Allohning bandaga bo'lgan yashirin marhamatini ifodalash uchun ishlatiladi.

Badiiy jihatdan esa "lutf" so'zi baytda inoyat (عناية), juvd (جود) va a'to (عطاء) kabi so'zlar bilan yonma-yon kelsa, shaxsning tarbiyaviy fazilatlar ochib beradi.

Baytdagi "juvdi" (جُودٍ) so'zi ج و د (j–v–d) ildizidan kelib chiqqan bo'lib, arab tilida ism (masdar) hisoblanadi. Ushbu ildiz arab tilida "saxovat", "berishda kenglik", "hadya qilishdan tortinmaslik", "oliyjanoblik" kabi ma'nolarni anglatadi. جود so'zi lug'aviy jihatdan moddiy va ma'naviy ne'matlarni cheklanmasdan, ko'ngildan berish tushunchasini ifodalaydi. جُود so'zi فُعْل vaznida kelgan masdar bo'lib, holat va sifat ma'nosini bildirib kelgan. Unga fe'l shaklidan جَادَ – يَجُودُ kabi fe'llarni shakllarini bilishimiz mumkin tarjimada "saxiylik qildi", "ehson etdi", "qo'li ochiq bo'ldi" ma'nolarini anglatadi[7].

Semantik jihatdan جود so'zimiz karam (كرم) va lutf (لطف) sifatlariga yaqin bo'lsa-da, ulardan ma'no jihatdan farq qiladi.

O'zbek tilida esa جود so'zining muqobil shakllari sifatida "saxovat", "qo'li ochiqlik", "ehsonkorlik", "in'om qilish" kabi so'zlarni ishlatishimiz mumkin.

Badiiy jihatdan qarasak "juvdi" so'zi baytda fazilatlarni sanab o'tish usulida kelib, lutf, inoyat va a'to so'zlari bilan birgalikda kelib, shoirning so'z qo'llash mahoratini mukkamal manzarasini ko'ra olamiz. Bu esa misralarda sifatlarning

[6] O'sha asar. – B.145.
[7] O'sha asar. – B.523.

qo‘llanish usuli ma’nolarini eng yuksak darajada tasvirlanganiga shohid bo‘lamiz.

Devonda uchraydigan sifatlar adadi jihatdan ko‘p bo‘lmasad uni leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan dolzarblikni yo‘qotmaydi. Yuqorida keltirilgan misralarda sifatlarni baytda kelgan o‘rniga ko‘ra tahliliy yondashgan bo‘lsak-da, takrorlanib kelgan sifat turkumiga oid so‘zlarni ham uchratamiz.

“Devon”da kelgan arabcha sifatlardan misollar;

| № | Arabcha | O‘zbekcha |
|---|---|---|
| 1 | حبيب | suyukli |
| 2 | سخاء | ochiq qo‘llilik, saxiylik |
| 3 | لطف | mehribonlik, noziklik |
| 4 | عناية | g‘amxo‘rlik, e’tibor |
| 5 | جود | saxiylik |
| 6 | صادق | rostgo‘y |
| 7 | نبي | bashoratli, yuborilgan |
| 8 | رحم | rahm, rahm-shafqat |
| 9 | محرّم | maxfiy, sirli, |
| 10 | حَقِيقَة | haqiqiylik |
| 11 | رُجُولَة | odamlik |
| 12 | قَرَار | tinchlik, barqarorlik |
| 13 | صبر | sabr |
| 14 | جور | zulm, zo‘ravonlik |
| 15 | شكر | minnatdorlik, shukur |

Ubaydiy devonining katta qismini g‘azal janridagi she’rlarni tashkil qiladi. G‘azallarining yetakchi mavzusi-ishq, u shu mavzu doirasida dunyo, hayot, tabiat go‘zalliklariga doir xilma-xil tuyg‘u va kechinmalarini tasvirlab beradi. Shunisi e’tiborga loyiqki, ushbu tuyg‘u va fikrlar ko‘p hollarda real hayot bilan aloqador tarzda ifodalangan[8]. Shoirning g‘azallari bilan tanishar ekanmiz, bu jihatlar Ubaydiy ijodining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Shoir ishq mavzusini faqat xayoliy yoki mavhum tarzda emas, balki hayotiy voqealar va jonli his-tuyg‘ular bilan bog‘lab tasvirlaganini ijod namunalarida uchratamiz. Shu sababli uning g‘azallari o‘quvchiga yaqin va ta’sirli tuyuladi.Yuqorida keltirilgan

[8] Абдуллаев М. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти. Д. ... Т.:2000. – Б.55.

misollarni namuna sifatida ko‘rish mumkin. Shoirning g‘azaliyoti faqat miqdorning ko‘pligi jihatida emas, balki g‘oyaviy-badiiy olamining kengligi va ma’nolarning rang-barangligi bilan ajralib turadi, bu esa izlanish, muhokama yuritishni talab qildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M., *Arab tili grammatikasi*, Toshkent: darslik. G‘ofur G‘ulom.2024.
2. Иброҳимов Н. Орипов А. Икромжонов А. Зайриев А. Ал-Қомус. Ж.I- IV. - Тошкент: Ғофур Ғулом нашриёти. 2022.
3. Абу Мансур ас-Саолибий. Йатимат-ад-даҳр фи маҳосин аҳл ал-аср. – Т.; 1976.
4. Xolbekov A. *Qul Ubaydiy hayoti va ijodi.* Monografiya. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2005.
5. Karimov A. *O‘zbek mumtoz adabiyotida axloqiy motivlar.* Samarqand: Zarafshon, 2017.
6. Jo‘rabekova M. *Qul Ubaydiy satirasi va uning ijtimoiy mazmuni*. Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2018.
7. Yusupov H. *Qul Ubaydiy g‘azallarining badiiy xususiyatlari.* Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
8. Bobomurodov B. *Qul Ubaydiy asarlaridagi ijtimoiy-satirik ruh.* Qarshi: QDPI, 2022.
9. Абдуллаев М.Ҳ. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти.Дисс. ... Т.: 2000.